



**O'zbekiston Respublikasi
Markaziy banki**

Biznes kayfiyati sharhi

2025 yil III chorak



Biznes kayfiyati sharhi – O‘zbekiston Respublikasi hududlaridagi iqtisodiy faollik, tadbirkorlik muhiti va bandlik bilan bog‘liq tendensiyalarni muqobil ko‘rsatkichlar orqali o‘zida ifoda etadi.



Ushbu sharh joriy yilning III choragida mamlakatda shakllangan biznes kayfiyatini o‘rganish maqsadida sentabr oyida hududlarda o‘tkazilgan so‘rov natijalari asosida tayyorlandi. So‘rovda mamlakatning barcha hududlari to‘liq qamrab olingan bo‘lib, iqtisodiyotning turli sohalarda faoliyat yurituvchi ikki mingdan ortiq tadbirkorlar ijtimoiy tarmoqlar orqali ishtirok etdi. Bunda, tadbirkorlik faoliyati yo‘nalishlarini kengroq qamrab olish va reprezentativlikni ta‘minlashga alohida e‘tibor qaratildi.

So‘rovnoma hududlardagi iqtisodiy faollik, tadbirkorlik sharoitlari va muhitiga ta’sir qiluvchi omillar, energiya iste’moli hajmi o‘zgarishi, yuk tashish ko‘rsatkichlari, sohalarda ishchi kuchiga bo‘lgan talab, bandlik darajasi, savdo hajmi hamda soha istiqboli bo‘yicha joriy holat va kutilmalarni aniqlash bo‘yicha savollardan tashkil topgan.

Har bir savolga bir nechta javob variantlari biriktirilgan bo‘lib, qatnashuvchilar tomonidan bir paytning o‘zida ulardan bir yoki bir nechtasi tanlanishi mumkin. Natijalar har bir javob variantini tanlaganlar sonini umumiy javoblar soniga bo‘lish va alohida guruhlar bo‘yicha vaznli koeffitsiyentlar qo‘llash orqali umumlashtirilgan. Umumlashtirilgan ma’lumotlar taqsimot qoidalari asosida tahlil qilinib, o‘rtacha ko‘rsatkichlar bilan taqqoslangan.

Tahlillar mamlakatning turli hududlaridagi iqtisodiy sharoitlarni qiyosiy taqqoslash va ularning o‘zgarish tendensiyalarini sifat jihatidan o‘rganish imkonini beradi.

Umumiy xulosalar

Tadbirkorlik muhiti

2025 yilning III choragi yakunlari bo'yicha tadbirkorlik muhitini o'rganish natijalari respublikadagi biznes faoliyatida ijobiy tendensiya davom etayotganini ko'rsatmoqda. So'rovnomada ishtirok etgan tadbirkorlarning 62 foizi joriy sharoitlarni 2025 yilning II choragiga nisbatan yaxshilangan deb baholagan. Ushbu ko'rsatkich so'nggi ikki yil davomida o'rtacha 50 foizdan yuqori darajada saqlanib kelmoqda va bu tadbirkorlar ishonchining barqarorligidan dalolat beradi.

Respondentlar biznes muhitidagi ijobiy o'zgarishlarni, avvalo, bank xizmatlari sifati, raqobat muhiti va yo'l infratuzilmasi yaxshilangani, litsenziya olish jarayonlari soddalashtirilgan hamda ma'muriy aralashuvlar kamaygani bilan izohlanadi. Shu bilan birga, monopollashuv darajasi, soliq ma'murchiligi, energiya ta'minoti va bojxona tariflari bo'yicha holat o'tgan chorak darajasida saqlanib qoldi.

Iqtisodiy faollik

Mazkur chorakda barcha iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari o'tgan chorakka nisbatan o'zgarishsiz saqlanib qoldi. Xususan, tadbirkorlar tomonidan III chorakda buyurtmalar va yuk tashish hajmlari, energiya iste'moli hamda ko'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab o'zgarmaganligini ta'kidlagan tadbirkorlar ulushi avvalgi chorakka nisbatan sezilarli ko'paydi. Ushbu ko'rsatkich Surxondaryo, Sirdaryo, Namangan va Navoiy viloyatlari, Toshkent shahri hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida yaqqol namoyon bo'lib, bunga asosan kommunal, moliya, savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat tarmoqlari asosiy hissa qo'shdi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi Sirdaryo, Buxoro, Namangan viloyatlari va Toshkent shahrida sezilarli oshgan bo'lsa, Andijon, Jizzax, Surxondaryo, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida pasaydi. Tadbirkorlar tomonidan energiya ta'minotidagi uzilishlar, aylanma mablag'larining kamligi, avtomobillar uchun yonilg'i narxlarining qimmatlashishi, soliq tizimidagi murakkabliklar va ijara xarajatlarining yuqoriligi to'liq quvvatda faoliyat yuritmaslikning asosiy sabablari sifatida qayd etildi.

Bandlik

III chorak davomida mehnat bozorida faollik barqaror darajada shakllanib, aksariyat korxonalarning qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talabi deyarli o'zgarishsiz saqlanib qolingani ta'kidlandi. Jumladan, III chorakda ishchi kuchiga talabi o'zgarmaganini bildirgan tadbirkorlik subyektlari ulushi 2,6 foiz bandga oshib, 46,4 foizga yetdi.

Kelgusi choraklarda Samarqand, Andijon, Namangan, Toshkent viloyatlarida qo'shimcha ishchi kuchiga talab ortishi, Qashqadaryo, Farg'ona viloyatlari hamda Toshkent shahrida esa biroz pasayishi kutilmoqda. Ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, turizm, ta'lim va hunarmandchilik sohalarida qo'shimcha ishchi kuchiga talab boshqa sohalarga nisbatan yuqori shakllanishi kutilmoqda.

Moliyaviy holat

Tadbirkorlar orasida so'nggi uch oy davomida qarz majburiyatlari kamayganligini bildirgan tadbirkorlar ulushi ko'payib, 18 foizni tashkil etgan (o'tgan chorakda 14 foizni tashkil etgan). Shu bilan birga, qo'shimcha kreditlarga bo'lgan talab borasidagi kutilmalarda ham biroz pasayuvchi tendensiyalar saqlanib qolmoqda. Samarqand, Sirdaryo, Qashqadaryo, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida kelgusi chorakda kredit resurslariga ehtiyoj sezilarli oshishi kutilayotgan bo'lsa, aksincha, Namangan, Toshkent, Farg'ona hamda Surxondaryo viloyatlarida ehtiyoj pasayishi kutilmoqda. Bunda, ta'lim, tibbiyot, turizm, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish, moliya va maishiy xizmatlar sohalarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan kelgusida kredit mablag'lariga nisbatan yuqori ehtiyoj mavjudligi bildirildi.

Istiqbollar

O'rta muddatli istiqbollarda, tadbirkorlarning mamlakat iqtisodiy rivojlanishiga bo'lgan ishonchi ijobiy saqlanmoqda. 2025 yilning dastlabki choragidan buyon ijobiylik darajasi sezilarli yaxshilanib, III chorakda so'rovlarda ishtirok etgan biznes subyektlarining 69 foizi kelgusi davrda makroiqtisodiy sharoit yaxshilanishiga ishonch bildirgan.



Toshkent shahri, Toshkent viloyati

2025 yilning III choragida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida respondentlarning 60 foizi biznes shart-sharoitlarini yaxshilangan deb baholadi. Ushbu ko'rsatkich joriy yilning II choragiga nisbatan 9 foiz bandga oshdi. Xususan, moliya, hunarmandchilik, umumiy ovqatlanish va qurilish sohalarida biznes muhiti yaxshilanganini ta'kidlaganlar ulushi avvalgi chorakka nisbatan sezilarli darajada oshdi.


Jumladan, so'rovlarda ishtirok etgan biznes subyektlar tomonidan bank xizmatlarining sifati, litsenziya-guvohnoma va kredit olish imkoniyatlari yaxshilangani, shuningdek, ma'muriy aralashuvlar, monopollashuv hamda raqobat muhitida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgani qayd etildi.

Tadbirkorlar tomonidan yo'l infratuzilmasi, soliq ma'murchiligi, bojxona tariflari hamda gaz va elektr energiyasi ta'minotida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmaganligi qayd etildi.


Joriy yilning III choragida iqtisodiyotda ishlab chiqarish bo'yicha ijobiy muhit saqlanib qoldi. Xususan, ishlab chiqarish va buyurtmalar hajmining oshganini qayd etganlar ulushi ikkinchi chorakka nisbatan mos ravishda 4,6 va 3,9 foiz bandga ko'paydi. Ushbu faollik ayniqsa qurilish, moliya, qishloq xo'jaligi va umumiy ovqatlanish sohalarida kuzatildi.

Kredit va qarz to'lovlari hajmi oshishi o'tgan chorakda kuzatilgan o'sishdan so'ng, III chorakda biroz sekinlashdi. Jumladan, ta'lim, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik va tibbiyot sohalarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan kredit majburiyatlari hajmi kamayganini bildirganlar ulushi oshdi.


1-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



2-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



3-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Toshkent shahri, Toshkent viloyati

III chorakda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ko'paydi. Yuqori quvvatda ishlagan korxonalar ulushi 43 foizdan 53 foizgacha oshdi. Bunda, yuqori quvvatlarda faoliyat olib borayotgan tadbirkorlik subyektlari asosan qurilish, aloqa, axborot, moliya, umumiy ovqatlanish sohalarida kuzatildi.


To'liq quvvatda ishlay olmayotgan subyektlar talabning yetarli darajada emasligi, gaz va elektr ta'minotidagi uzilishlar, yuqori ijara xarajatlari hamda avtomobil yonilg'isining qimmatlashuvini asosiy omil sifatida baholadilar.

Ushbu davrda so'rovlarda ishtirok etgan tadbirkorlik subyektlarining 51 foizi ishlab chiqarish hajmlari, 54 foizi buyurtmalar hajmi ortishini kutmoqda. Yonilg'i va energiya iste'moli hamda ko'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab bo'yicha kutilmalar esa biroz sekinlashgan. Umumiy ovqatlanish qurilish, qishloq xo'jaligi, tibbiyot va turizm sohalarida faollikning yuqori o'sishi kutilmoqda.


Shu bilan birga, kelgusida qo'shimcha kredit resurslariga ehtiyoj mavjudligini ta'kidlagan biznes subyektlarining ulushi avvalgi chorakka nisbatan biroz oshdi. Kreditga bo'lgan talab, ayniqsa, maishiy xizmat, ta'lim, moliya va aloqa-axborot sohalarida oshishi kutilmoqda.

Toshkent shahri va Toshkent viloyatida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarning 69 foizi kelgusi uch yilda mamlakatimiz iqtisodiyoti va biznes muhitining yaxshilanishiga ishonch bildirgan.


4-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



5-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



6-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Buxoro, Navoiy, Samarqand

2025 yilning III choragida Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarida o'tkazilgan so'rov natijalari tadbirkorlik muhitidagi ijobiy tendensiyalar barqaror davom etayotganini ko'rsatdi. Tadbirkorlik subyektlarining 60 foizi biznes sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi. Ushbu ijobiy o'zgarishlar maishiy xizmatlar, qishloq xo'jaligi, umumiy ovqatlanish, kommunal xizmatlar va tibbiyot sohalarida sezilarli bo'lganligi qayd etildi.

Tadbirkorlar tomonidan bank xizmatlari sifati va kredit olish imkoniyatlari yaxshilangani bilan birga, raqobat muhiti, litsenziya olish jarayonlari hamda yo'l infratuzilmasidagi ijobiy o'zgarishlarni asosiy omillar sifatida qayd etildi. Aksincha, bojxona tariflari, gaz va elektr ta'minoti hamda soliq ma'murchiligi sohalarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagani ta'kidlandi.

Raqobat muhiti oldingi chorakka nisbatan yaxshilanib, respondentlarning 55 foizi, ayniqsa, qurilish, ta'lim, turizm, aloqa, axborot, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmat sohalarida faoliyat olib borayotgan korxonalar ijobiy o'zgarishlarni qayd etdi.


Shuningdek, so'rovlarda ishtirok etgan biznes subyektlarining 52 foizi yo'l infratuzilmasida ijobiy o'zgarishlar bo'lganini ta'kidladi.

2025 yilning III choragida iqtisodiyotda ishlab chiqarish bo'yicha ijobiy muhit saqlanib qoldi. Xususan, buyurtmalar hajmi, ishlab chiqarish va qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talabning oshganini qayd etgan subyektlarning ulushi o'tgan chorakka nisbatan ko'paydi.


Buyurtmalar hajmida ham ijobiy dinamika saqlanib, ushbu chorakda, asosan, umumiy ovqatlanish, turizm va savdo sohalarida hisobiga ta'minlandi.

Qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab maishiy xizmat, qurilish, tashish xizmati, tibbiyot va hunarmandchilik sohalarida oshgan bo'lsa, aloqa, qishloq xo'jaligi hamda ta'lim sohalarida biroz pasaydi.


7-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



8-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



9-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Buxoro, Navoiy, Samarqand

Hisobot davrida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish ijobiy dinamikasi saqlanib qoldi. To'liq quvvatlarda faoliyat olib borayotgan korxonalar ulushi o'tgan chorakka nisbatan deyarli 2 barobarga (7 foizdan 13 foizgacha) ko'paydi. To'liq quvvatdagi faoliyat olib borayotgan korxonalar, asosan, hunarmandchilik, ta'lim, moliya, umumiy ovqatlanish va tibbiyot xizmatlarida qayd etildi. Aksincha, ishlab chiqarish qishloq xo'jaligi, va tashish xizmatlari sohalarida quvvatlardan foydalanish sur'ati sekinlashdi.

Tadbirkorlar tomonidan to'liq quvvatlarda ishlamaslikning asosiy sabablari sifatida ichki talabning yetarli darajada emasligi, aylanma mablag'ning kamligi, yonilg'i-energiya mahsulotlari narxining qimmatlashishi hamda energiya ta'minotidagi uzilishlar qayd etildi.


So'rovlarda qatnashgan biznes subyektlari kelgusida buyurtmalar, ishlab chiqarish va yuk tashish hajmlari, shuningdek, ko'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab hamda yoqilg'i iste'moli oshishi bo'yicha kutilmalar mavjudligini ta'kidlagan.

Kommunal xizmatlar, maishiy xizmatlar, tibbiyot, umumiy ovqatlanish, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi yo'nalishlarida kelgusi choraklarda energiya iste'molining yuqori o'sishi kutilmoqda.


Respondentlarning 56 foizi kelgusi chorakda buyurtmalar hajmini joriy darajasidan yuqori bo'lishini kutmoqda. Bu, ayniqsa, turizm, hunarmandchilik, umumiy ovqatlanish va ishlab chiqarish sohalarida sezilarli bo'lishi mumkin.

Tadbirkorlarning 69 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhitining yanada yaxshilanishiga ishonch bildirgan.


10-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



11-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



12-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Andijon, Namangan, Farg'ona

2025 yilning III choragida Farg'ona vodiysida tadbirkorlik muhiti bo'yicha ijobiy kayfiyat saqlanib qolib, so'rovlarda ishtirok etgan biznes subyektlarining 74 foizi biznes sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi. Xususan, turizm, ishlab, chiqarish, tashish xizmatlari, qurilish, savdo sohalarida biznes muhiti yaxshilanganini ta'kidlaganlar ulushi o'tgan chorakka nisbatan sezilarli darajada oshdi.

Tadbirkorlar tomonidan, asosan, bank xizmatlarining sifati oshgani, kredit resurslarini olish kengaygani, litsenziya va guvohnoma olish jarayonlari hamda raqobat muhitining yaxshilanayotgani, shu bilan birga, ma'muriy aralashuvlar kamaygani qayd etildi. Bojxona tariflari, soliq ma'murchiligi, gaz va elektr ta'minotida ijobiy baholar nisbatan kamroq darajada shakllandi.


So'rovlarda ishtirok etgan biznes vakillarining ta'kidlashicha, joriy yilning III choragida energiya iste'moli, ishlab chiqarish, buyurtmalar hamda yuk tashish hajmlarida sezilarli o'zgarishlar kuzatilmagan.

Korxonalarining 65 foizi buyurtmalar hajmi ko'payganligini bildirdi. Hunarmandchilik, qurilish, turizm, tibbiyot va savdo sohalarida buyurtmalar hajmi oshgan bo'lsa, aksincha, umumiy ovqatlanish hamda tashish xizmatlari sohalarida buyurtmalar hajmi kamaygan.


Tadbirkorlarning 57 foizi energiya iste'mollari oshganini ma'lum qildi.

Mehnat bozorida ham ijobiy faollik saqlanib, qo'shimcha ishchi kuchiga talab ishlab chiqarish, turizm, qishloq xo'jaligi va qurilish tarmoqlarida ko'paydi. Biroq umumiy ovqatlanish, ta'lim va kommunal xizmatlari sohalarida ushbu ko'rsatkich biroz sekinlashdi.


13-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



14-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



15-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Andijon, Namangan, Farg'ona

Mazkur hududlarda past va o'rta quvvatlarda ishlayotgan korxonalar ulushi avvalgi chorakka nisbatan 4 foiz bandga ko'paygan bo'lsa, aksincha, yuqori va to'liq quvvatlarda faoliyat olib borayotgan korxonalar ulushi 4 foiz bandga kisqarib, 57 foizni tashkil etdi. Tibbiyot, aloqa va axborot, ta'lim hamda maishiy xizmat sohalari nisbatan yuqori quvvatda faoliyatini davom ettirgan.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan nisbatan o'rta yoki past darajada faoliyat yuritib kelayotgan korxonalar aylanma mablag'lar va ichki talabning yetarli emasligi, gaz va elektr ta'minotidagi uzilishlar hamda ijara to'lovlarining qimmatlashishi kabi muammolarni asosiy omillar sifatida ta'kidladilar.


Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, umuman olganda, ijobiy shakllandi. Respondentlarning fikriga ko'ra, kelgusida yonilg'i va energiya iste'moli, yuk tashish, ishlab chiqarish va buyurtma hajmlari joriy holatda saqlanib qolishi qayd etildi. Shunga qaramasdan, so'rovlada ishtirok etgan biznes subyektlarining 64 foizi buyurtmalar hajmining oshishini kutayotganini bildirdi. Kelgusi davrda buyurtmalar hajmi oshishini hunarmandchilik, qurilish, turizm, savdo, ishlab chiqarish va tibbiyot sohaslarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar tomonidan qayd etildi.

Aksariyat tadbirkorlar yuk tashish hajmlari sezilarli o'zgarishsizligini va joriy holatda saqlanib qolishini kutishmoqda.


Mehnat bozoriga oid kutilmalarda qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyoj ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, xunarmandchilik, turizm va tashish sohalari yuqori baholagan bo'lsa, tibbiyot hamda moliya sohalari joriy holatda saqlanib qolishini kutmoqda.

So'rovnomada qatnashgan biznes vakillarining 77 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirdi.


16-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



17-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



18-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Qashqadaryo, Surxondaryo

2025 yilning III choragida Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida o'tkazilgan so'rov natijalari tadbirkorlik muhitidagi ijobiy tendensiyalar barqaror saqlanayotganini ko'rsatdi. Tadbirkorlik subyektlarining 61 foizi biznes shart-sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi.

Turizm, moliya, hunarmandchilik, ishlab chiqarish va ta'lim sohalarida biznes muhitining yaxshilanganini qayd etgan tadbirkorlar ulushi sezilarli ortgan bo'lsa, kommunal xizmat, aloqa va axborot, maishiy xizmat hamda umumiy ovqatlanish sohalarida ijobiy o'zgarishlarni qayd etganlar qisqardi.

Ishbilarmonlarning qayd etishicha, bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlarining ortishi, raqobat muhitining yaxshilanishi, shuningdek, ma'muriy aralashuvlar kamaygani hamda litsenziya va guvohnomalarni olish tartibining soddalashishi tadbirkorlik faolligini rag'batlantirgan asosiy omillardan bo'ldi. Soliq ma'murchiligi, bojxona tariflari hamda energiya ta'minoti borasida esa sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi.


Hunarmandchilik, savdo, moliya, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi sohalarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar bank xizmatlari sifati yaxshilanganini qayd etgan.

Hunarmandchilik, ta'lim, ishlab chiqarish, savdo va qishloq xo'jaligi sohalarida kredit olish imkoniyatlari yaxshilanganini ma'lum qilgan tadbirkorlar ulushi 70 foizdan yuqorini tashkil qildi.


Yonilg'i va energiya iste'moli, buyurtmalar hajmi, qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab va kredit to'lovlari oshganini qayd etganlar ulushi oldingi chorakka nisbatan kamaygan bo'lsa, ishlab chiqarish sohasida ko'paydi.

Bunda, hunarmandchilik, qishloq xo'jaligi, tashish va umumiy ovqatlanish sohalarida ishlab chiqarish hajmlari oshganligi ta'kidlangan bo'lsa, aksincha, tibbiyot sohasi vakillari xizmat ko'rsatish hajmining qisqarganini qayd etgan.


19-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



20-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



21-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Qashqadaryo, Surxondaryo

O'rta va nisbatan yuqori quvvatlarda ishlayotgan subyektlar ulushi II chorakka nisbatan 6 foiz bandga kamayib, 42 foizni tashkil etdi. Bu, asosan, ishlab chiqarish, tibbiyot, hunarmandchilik va umumiy ovqatlanish sohalarida korxonalarning nisbatan past quvvatlarda faoliyat olib borayotgani hisobiga yuzaga keldi. Ta'lim, qurilish, moliya, aloqa va axborot sohalaridagi korxonalar nisbatan yuqori quvvatlarda ishlagani kuzatildi.

Tadbirkorlar to'liq quvvatda ishlamasligiga asosiy omillar sifatida gaz va elektr energiyasi ta'minotidagi uzilishlar, aylanma mablag'lar va ichki talabning yetarli darajada emasligi, soliq tizimidagi qiyinchiliklar hamda yonilg'i narxining oshishini qayd etdilar.

Kelgusi davrda iqtisodiy faollik bo'yicha biznes subyektlari orasida ijobiy kutilmalar biroz pasaydi. Jumladan, energiya iste'moli, qo'shimcha ishchi kuchiga talab, buyurtmalar hajmi va kredit to'lovlari bo'yicha ijobiy baholar biroz kamaygan bo'lsa, kelgusida ishlab chiqarish hajmi joriy holatda saqlanib qolishi kutilmoqda.


O'tkazilgan so'rovlar natijalariga ko'ra, ishlab chiqarish, ta'lim, aloqa va axborot sohalarida kelgusi davrda energiya iste'moli kamayishi kutilmoqda.

Tadbirkorlarning 54 foizi kelgusida ishlab chiqarish hajmining ortishini kutmoqda. Xususan, hunarmandchilik, maishiy xizmat, qurilish, turizm, fan va ta'lim sohalarida vakillari talab yuqori o'sishini kutmoqdalar.


Mehnat bozorida faollik kelgusida biroz qisqarishi kutilmoqda. Jumladan, kommunal xizmatlar, ta'lim, maishiy xizmat va qurilish sohalarida kelgusi davrda qo'shimcha ishchi kuchiga ehtiyoj qisqarishi ta'kidlandi.

Ushbu hududda so'rovnoma ishtirok etgan biznes subyektlarining 69 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyotida hamda biznes muhitida ijobiy o'zgarishlar bo'lishiga ishonch bildirdi.


22-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



23-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



24-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Jizzax, Sirdaryo

2025 yilning III choragida Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida o'tkazilgan so'rov natijalari tadbirkorlik muhitidagi ijobiy tendensiyalar barqaror saqlanayotganini ko'rsatdi. Xususan, tadbirkorlik subyektlarining 60 foizi biznes sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi.

Fan va ta'lim, aloqa, hunarmandchilik, maishiy xizmatlar va savdo sohalarida biznes muhitining yaxshilanganini qayd etgan tadbirkorlar ulushi sezilarli ortgan bo'lsa, moliya, qurilish, ishlab chiqarish, tashish xizmatlari hamda qishloq xo'jaligi sohalarida biroz kamaydi.

Tadbirkorlar bank xizmatlari, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti va yo'l-transport infratuzilmasi yaxshilanganini eng muhim ijobiy omillar sifatida ko'rsatdilar. Bojxona tariflari, soliq ma'murchiligi hamda raqobat muhitida ijobiy o'zgarishlar bo'lganini qayd etganlar ulushi o'tgan chorak darajasida qolib, sezilarli o'sish qayd etilmadi.


Kredit olish imkoniyatlari bo'yicha ijobiy baholarning o'sishi kuzatildi va 60 foiz tadbirkorlar kredit olish imkoniyatlari yaxshilanganini bildirdi. Ushbu o'sish ishlab chiqarish, aloqa va axborot, umumiy ovqatlanish, qishloq xo'jaligi va savdo tarmoqlarida yuqoriroq shakllandi.

So'rovlarda qatnashgan biznes subyektlarining 51 foizi ishlab chiqarish va buyurtmalar hajmlari hamda energiya iste'moli bo'yicha ijobiy o'zgarishlarni qayd etgan.


Ishlab chiqarish hajmi, qishloq xo'jaligi, aloqa va axborot, ta'lim va qurilish tarmoqlarida kengaydi. Buyurtmalar hajmi, asosan, aloqa va axborot, qishloq xo'jaligi, tibbiyot, ta'lim va umumiy ovqatlanish sohalarida ko'paydi.

Shuningdek, aloqa va axborot, ta'lim, tibbiyot, ishlab chiqarish va qurilish tarmoqlarida elektr energiyasi va yonilg'iga talab yuqori shakllangan.


25-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



26-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



27-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Jizzax, Sirdaryo

Kreditlar va ular bo'yicha to'lovlar hajmini oshganligini ma'lum qilganlar ulushi kamaydi. Bunda yuqori pasayish moliya, aloqa va axborot, ta'lim va savdo tarmoqlarida kuzatildi.

Korxonalarining 45 foizi o'rta va yuqori quvvatlarda ishlayotganini bildirgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich o'tgan chorakka nisbatan biroz yomonlashgan.

O'rta hamda yuqori quvvatlarda faoliyat yuritgan korxonalar, asosan, moliya, ta'lim, aloqa va axborot, qurilish hamda umumiy ovqatlanish sohalariga to'g'ri keldi. Quvvatlaridan to'liq foydalana olmagan tadbirkorlar esa, asosan, ishlab chiqarish, maishiy xizmat, tashish xizmati, turizm sohasida faoliyat yuritmoqda.

Asosiy omillar sifatida soliq tizimidagi qiyinchiliklar, aylanma mablag'larning yetarli emasligi, energiya ta'minotidagi uzilishlar, ichki talabning kamroq shakllangani hamda ijara to'lovlarining qimmatlashishi ko'rsatilgan.

Respondentlarning aksariyat qismi, xususan, ta'lim, aloqa va axborot, qishloq xo'jaligi, tibbiyot, tashish va ishlab chiqarish sohalarida vakillarining yonilg'i hamda elektr energiyasiga bo'lgan talab sezilarli o'sishini kutmoqdalar.


Qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab, ishlab chiqarish, yuk tashish va buyurtmalar hajmlari borasidagi kutilmalar biroz kamaygan bo'lsa-da, ijobiylikicha saqlanib qolmoqda.

Mehnat bozorida nisbatan faollik saqlanib qolmoqda. Respondentlarning 51 foizi qo'shimcha ishchi kuchiga talabi oshishini kutmoqda. Bunda, asosiy o'sish umumiy ovqatlanish, tashish, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish tarmoqlarida bo'lishi ma'lum qilindi.


Shuningdek, umumiy ovqatlanish, aloqa va axborot, ta'lim, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va ishlab chiqarish sohalarida buyurtmalar hajmi ortishi kutilmoqda.

Jizzax va Sirdaryo viloyatida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlarning 65 foizi kelgusi uch yil ichida mamlakatimiz iqtisodiyoti va biznes muhitining yaxshilanishiga ishonch bildirgan.


28-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



29-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



30-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda





Qoraqalpog'iston, Xorazm

2025 yilning III choragida Qoraqalpog'iston Respublikasi va Xorazm viloyatida tadbirkorlik muhiti o'tgan chorakka nisbatan o'zgarishlarsiz saqlanib qoldi. So'rovda qatnashgan tadbirkorlarning 57 foizi biznes yuritish sharoitlari yaxshilanganini qayd etdi (II chorakda 57 foiz). Xususan, turizm, aloqa, qurilish, qishloq xo'jaligi, tibbiyot va kommunal xizmatlar sohalarida biznes kayfiyati yuqori darajada saqlanib qoldi.


Biznes vakillari tomonidan bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti, shuningdek, litsenziya olish jarayonlarini asosiy ijobiy omillar sifatida qayd etildi. Bojxona tariflari, soliq ma'murchiligi hamda monopollashuv darajasi kabi omillarda esa sezilarli yaxshilanish kuzatilmagani ta'kidlandi.

Tadbirkorlar o'tgan chorak bilan solishtirganda kredit va litsenziya-guvohnoma olish jarayonlari soddalashganligini hamda yo'l infratuzilmasi yaxshilanganini ko'proq qayd etishdi. Xususan, moliya, maishiy xizmat, tibbiyot, turizm va hunarmandchilik sohaları vakillari kredit olish imkonitlarining kengayganligini ta'kidlagan bo'lsa, qishloq xo'jaligi, maishiy xizmat, hunarmandchilik hamda turizm sohalarida faoliyat yurituvchi tadbirkorlar litsenziya olish jarayonlarini soddalashganligini bildirishgan.


Yonilg'i va energiya ta'minotidagi o'zgarishlar bo'yicha ijobiy baholar oldingi chorakka nisbatan kamaydi. Bunda, ishlab chiqarish, qurilish, aloqa va axborot va moliyaviy xizmatlar sohalarida ko'pchilik respondentlar energiya ta'minotida sezilarli o'zgarish kuzatilmaganini ta'kidlashdi.

Shuningdek, energiya iste'moli, ishlab chiqarish, buyurtmalar hajmi va qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab bo'yicha ijobiy baholar o'tgan chorakka nisbatan biroz kamaydi. Ta'lim, maishiy xizmat, tashish va ishlab chiqarish sohalarida faoliyat olib borayotgan tadbirkorlar kelgusida energiya iste'molida sezilarli o'zgarishlar bo'lmasligini kutmoqda.


31-rasm. Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



32-rasm. Biznes kayfiyatiga ta'sir etgan omillar, respondentlar ulushi, foizda



33-rasm. Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari, respondentlar ulushi, foizda





Qoraqalpog'iston, Xorazm

Ta'lim, tashish, moliya, qurilish, va maishiy xizmatlar sohalarida kelgusida buyurtmalar hajmi joriy holatda saqlanib qolishi mumkinligini qayd etishdi.

Korxonalarning ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi yomonlashdi. Jumladan, 39 foiz tadbirkorlar o'rta va yuqori quvvatlarda ishlayotganini ma'lum qildi (II chorakda 47 foiz).

Quvvatdan to'liq foydalana olmayotgan tadbirkorlar aylanma mablag'lari yetarli darajada emasli, energiya ta'minotidagi uzilishlar, avtomobil yonilg'isi narxi oshgani, soliq tizimidagi murakkabliklar, talabning yetarli darajada emasligi hamda ijara xarajatlarning yuqoriligini ta'kidladilar.

Tadbirkorlar orasida kelgusi davrda iqtisodiy faollik bo'yicha ijobiy kutilmalar shakllangan. Jumladan, respondentlar kelgusida ishlab chiqarish, buyurtmalar va yuk tashish hajmlarining oshishini, shuningdek, qo'shimcha ishchi kuchiga hamda kreditlarga talabning ortishini kutishmoqda.


Xunarmandchilik, turizm, qishloq xo'jaligi, umumiy ovqatlanish, ta'lim va tibbiyot sohalarida ishlab chiqarish hamda buyurtmalar hajmlarining ortishi bo'yicha kutilmalar ijobiy shakllangan.

Mehnat bozorida faollik saqlanib qolmoqda. Respondentlarning 54 foizi qo'shimcha ishchi kuchiga talabi oshishini kutmoqda. Bunda, asosiy o'sish kommunal xizmat, hunarmandchilik, turizm, umumiy ovqatlanish va qishloq xo'jaligi sohalarida kutilmoqda.


Tadbirkorlarning deyarli yarmi kelgusida yuk tashish hajmining oshishini taxmin qilmoqda. Sohalar kesimida hunarmandchilik, turizm, umumiy ovqatlanish va qishloq xo'jaligi sohalarida ijobiy kutilmalar shakllangan.

So'rovnomada qatnashgan biznes vakillarining 62 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirdi.

34-rasm. Ayrim kunlarda faoliyat yuritmaslik sabablari, jami respondentlarning ulushi, foizda



35-rasm. Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



36-rasm. Kelgusi 3 yilda iqtisodiyot va biznes istiqbollari bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda

